

USTOZ – TA'LIM-TARBIYA ME'MORI

Normatova Dildoraxon Esonaliyevna

FarDU dotsenti, Falsafa fanlari nomzodi

<https://orcid.org/0000-0002-1210-9738>

Muxammadova Sevaraxon Nazirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada millatni ulug'likka yetaklovchi, qajblarga ziyo nurini sochuvchi, o`zidan keyin har bir insonning hayotida sezilmas, ammo juda muhim iz qoldiruvchi buyuk zot ustozlar haqida, shuningdek yangi O`zbekistonni qurayotgan bir davrda ular zimmasidagi sharaflari, mas'uliyatli vazifa haqida so`z yuritilgan.*

Kalit so`zlar: *ustoz, murabbiy, me'mor, kamolot, barkamol avlod, ta'limgarbiya, jamiyat, ehtirom, istiqbol.*

KIRISH

Bu dunyoda har qaysi ongli inson – qayerda ishlamasin, qanday kasbu kor, lavozim egasi bo'lmasin, unga bilim va tarbiya berib, hayotga yo'llagan muhtaram o'qituvchi va murabbiylari oldida hamisha qarzdorlik hissi bilan yashaydi.

Haqiqatan ham, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini bag'ishlab, barchamizga ezgulikdan saboq bergan, otadek mo'tabar, onadek mehribon, aziz ustozlarning hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan mashaqqatli va sharaflari mehnati uchun har qancha tahsin va tashakkurlar aytsak, arziydi.

Ustozlar biz uchun yaratgan tomonidan beriladigan alohida ne'matdir. Aynan ular millatni ulug'likka yetaklaydilar, insonni yetuk qiladilar va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartiradilar. Aynan o'qituvchilar bizga qalam qilichdan muhimroq ekanligini o'rgatadi. Ular jamiyatda hurmatga sazovordir, ular insonlarning turmush darajasini oshiradi. Ular odamni tarbiyalaydi va insoniy fazilaylarni o'rgatadi, yaxshi jamiyat qurishga hissa qo'shadi.

Rivoyat qilinishicha, imom Buxoriy (rahmatullohi alayh) xazratlari Makkai Mukarramada ta'lif berayotgan chog'da bir ziyoratchi Buxoroi Sharifdagi ustozlardan salom va maktub keltiradi. Bu xabarni eshitgan Imom Buxoriy (r.a.) Buxoroi Sharif tomonga yuzlanib, salomiga alik olganlaricha hurmat bajo keltiradilar, so'ngra maktubni ikki qo'llab olib, tabarruk qilib, ehtirom bilan xatni o'qigan ekanlar

Ha, ustoz misli yonib turgan shamga qiyos. O'zi yonib, atrofga nuru ziyo sochadi. Boshqalar ana shu nurdan bahramand bo'ladi. Shu sabab, har bir

inson yoshidan, mavqeidan, darajasidan qat'i nazar, saboq bergan ustoz-murabbiyi oldida mudom ta'zimda. Hazrat Navoiy aytganlaridek, Haq yo'lida bizga ming ranju qiyinchilik bilan saboq bergan muallimlarning mashaqqatli mehnatlari haqini hech bir boylik yoki gajnina bilan o'lchab bo'lmaydi. Ularning mehnatlari beqiyos va benazir.

Mamlakatimiz birinchi rahbari farmoni bilan 1997 yildan buyon 1 oktabrning "O'qituvchi va murabbiylar kuni" sifatida keng nishonlanayotgani millatimizning ustoz-murabbiylarga bo'lgan hurmat-ehtiromining amaldagi yorqin ifodasi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari ustoz-murabbiylarga ta'rif berib, "Agarki, dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo'lsa, kasblar ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir. Chindan ham o'qituvchi nainki, sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki, ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatdan ham hayot maktabini beradigan mo'tabar zotdir", degan edi.

Chindan ham, ustozlar murg'akligimizdanoq qalbimizga ezgulik urug'larini sochadi, qo'limizdan tutib, ma'rifat saboqlarini beradi, mehr-muhabbat ularashadi. Biz erishayotgan ulkan yutuqlarimiz, qo'lga kiritayotgan g'alabalarmizda ularning hissasi katta. Shu sabab, ularni mudom sharaflagimiz, ardoqlagimiz keladi.

Afsonalarga ko'ra, mashhur sarkarda Iskandar Rumiydan (Aleksandr Makedonskiy) "Nechun Arastuni (Aristotel) otangizdan ortiq izzat qilasiz?", deb so'radilar. Iskandar Rumiy javob berdi: "Otam go'yoki meni osmondan yerga tushirdi. Ammo ustozim Arastu meni yerdan osmonga ko'tardi. Ya'ni, otam meni dunyoga kelmog'imga sabab bo'ldi. Ustozim ilm va odob o'rgatib, martaba va izzatimning ortmog'iga sabab bo'ldi".

Muhokama va Natijalar

Ko'rinish turibdiki, dunyoni o'z ilmu ma'rifati bilan lol qilgan insonlar ham doim ustozini yuksak qadrlagan, izzat-hurmatini joyiga qo'ygan.

Muqaddas dinimizda ilm-ma'rifatli kishilarning maqomu martabalari Alloh tomonidan yuksaklarga ko'tarib qo'yilishi haqida shunday marhamat qilinadi: "Sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan kimsalarni Alloh baland darajalarga ko'tarur", dedi" (Mujodila surasi). Qator hadisi shariflarda muallimlarning hurmatini joyiga qo'yish, ularga nisbatan tavoze'li bo'lishga chaqiriladi. Jumladan,

Rasulullloh sollallohu alayhi va sallam marhamat qilib, dedilar: "Ilm o'rganining, ilm uchun sakinat va viqorni ham o'rganining. Va sizlarga ilm o'rgatayotganlarga tavoze' bilan o'zingizni past tuting!" (Imom Tabaroniy "al-Avsat"da rivoyat qilgan).

Muallimga kibr qilish, uni mensimaslik tuban xulq hamda nifoq alomatlaridan hisoblanadi. Imom Tabaroniy “al-Kabir”da rivoyat qilgan hadisi sharifda bunday deyiladi: “uch toifa inson borki, ularni faqat munofiqqina xorlaydi: Islomda mo‘ysafid bo‘lgan qariya, ilm sohibi va odil rahbar”

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bugungi kunda ustozlarga e’tibor, ularning fidokorona mehnati davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘qituvchilar va murabbiylar kuni bilan so‘zlagan nutqida shunday deydi:” Darhaqiqat, millionlab farzandlarimiz qalbiga ilm-fan ziyyosini singdirib, ularni el-yurtga munosib insonlar etib tarbiyalayotgan zahmatkash va olajanob ustozlarimizga har qancha tahsinlar aytsak, arziydi.”

“ Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”.

Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘ladilar. Va bu ma’naviy-ma’rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar to‘la qo‘llab-quvvatlaysizlar.

Bu purhikmat fikrlardan ko‘rinib turibdiki jamiyatimizda ustozlar qadr ulug‘lanmoqda, ularning sha’ni, qadr-qimmati qonuniy himoyalanmoqda.

Ustoz va muallimga o‘zni past tutib, xokisor bo‘lish najot eshigi, ilm tahsil qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Dinimiz shunga buyuradi, shunga o‘rgatadi. Bu ustozlarning shogirdlari ustidagi haqlaridandir. Ulamolar aytadilarki, ustoz va muallimlar faqat la’nati zamon va la’nati makondagina ehtirom qilinmaydilar. Chunki Nabiy alayhissalom olimlar hurmat qilinmaydigan zamonda yashashdan, shunday bir zamonga rizqlari qo‘shilgan bo‘lishidan Allohga sig‘ingan ekanlar. Payg‘ambar alayhissalom panoh so‘ragan zamon esa eng mash‘um va mal‘un zamon bo‘lishi shubhasizdir. Sahobalardan Sahl ibn Sa‘d as-So‘idiy (raziyallohu anhu) rivoyat qilishiga ko‘ra, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Allohga iltijo qilib: “Ey Alloh, alim (bilimdon)ga ergashilmaydigan, halim (oqil)dan esa hayo qilinmaydigan bir zamon ustimga kelib qolmasin!”, deya olim va muallimlar hurmat qilinmaydigan zamonda hayot kechirishdan panoh so‘rar edilar (Imom Ahmad rivoyati).

Ustoz. Shu bиргина со‘з zamirida olam-olam ma‘no va hurmat mujassam. Ustoz-bu o‘zidan keyin har bir insonning hayotida sezilmas, ammo juda muhim iz qoldiruvchi buyuk zot. Zero, har bir kasb egasi muallim qo‘lida o‘z yo‘lini topadi. Inson yo‘qki, ustoz-muallim sabog‘isiz kamolga yetgan bo‘lsa! Insoniyat

kamoloti uchun bilimi, iqtidori va hayotini baxsh etgan ustozlarning xizmatlarini hamma zamonlarda ham kishilar hurmatlab, o'zlarini esa e'zozlab kelishgan.

O'tgan ulug'larimiz, ota-bobolarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilganlar, ularning qadri nechog'li baland ekanini teran anglaganlar va shunga ko'ra muomala qilganlar. Imomi a'zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh shunday deganlari rivoyat qilinadi: «Ustozim Hammodning hurmati uchun uning uyi tomonga oyog'imni uzatmaganman. Holbuki, uning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko'cha bor edi. Hammod vafot etgandan so'ng qachon namoz o'qisam har safar albatta ota-onamga qo'shib, unga ham Allohdan mag'firat so'riganman. Nafaqat u ustozim, balki kimdan nimadir o'rgangan bo'lsam yoki kimdir menga nimadir o'rgatgan bo'lsa, albatta, o'sha kishilar uchun ham doim Allohdan mag'firat so'rayman».

Albatta, ustoz va murabbiylar jamiyat binosining binokorlari, ma'rifat bog'ining bog'bonlaridir. Ular hayot bo'stonidagi niholning baquvvat daraxtga aylanishi uchun beqiyos mehnat qiladi. Shuning uchun ham uning shogird ustidagi haqqi benihoya katta va ulug'dir.

Hayotning go'zalligi, farovonligi, odobligi, qolaversa, istiqlolimizning ravnaqi muallim mehnati bilandir.

XULOSA

"Ustoz otangdek ulug'", degan hikmatda olam-olam ma'no bor. Hatto otani quyoshga qiyos etamiz, ko'klarga ko'tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug' deb nisbat beriluvchi inson bor, bu – ustozdir! Haqiqatan, ota·ona seni voyaga yetkazadi, ustoz esa unib·o'sishing, kamolatga erishishing, ilm·ma'rifat cho'qqilarini zabt etishinga ko'maklashadi. O'z umrini, qalb qo'rini, aql·idrokini, tajribasi va bilimini sening yo'lingga sarf etadi. Yutug'ingni ko'rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligingdan g'am-anduh chekadi.

Ustoz bog'bonga o'xshaydi. U tarbiyalab o'stirgan nihollarning hosili qanchadan-qancha avlodlarni bahramand qiladi. Ustoz va murabbiylarning ma'suliyatli, ammo sharafli kasblarini bir mash'alaga qiyos etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O`qituvchi va Murabbiylar kuniga bag'ishlangan nutqi . Toshkent, 30. 09. 2020-yil

2.Termiziy hadislari, T: 01.10.2021

3.my. gov.uz sayti